

Neft mahsulotlarini yetkazib berish haqidagi

TBT/ 34 - sonli SH A R T N O M A

2021 yil . 8-январь

Termiz shaxri

Keyingi o'rinda «Yetkazib beruvchi» deb ataluvchi «Termiz neft bazasi» M.Ch.J. Termiz shaxri nomidan Ishonchnoma № 12-152 15.12.2020 y. asosida faoliyati yurituvchi direktori o'rinbosari B.SH.Zokirov bir tomonidan va «Iste'molchi» deb ataluvchi S/D VILOYAT BANDLIK BOSH BOSHKARMASI nomidan nizomiga asosida faoliyat yurituvchi C.Жумайев ikkinchi tomondan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. «Etkazib beruvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini yetkazib berish, «Iste'molchi» esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmalariga oladilar.

1.2. Tomonlar o'zaro kelishilgan holda ma'lum davr (oylik, choraklik yoki yillik davr) uchun yetkazib berilishi ko'zda tutilgan neft mahsulotlari turlari, assortimentlari va miqdorlarini ushbu shartnomaning 1-ilovasidagi spetsifikatsiya orqali belgilab oladilar.

Spetsifikatsiya ma'lumotlaridan tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan «Iste'molchi» buyurtmalarni shakkantirishda, «Etkazib beruvchi» esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalilanildilar.

## 2. NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB – KITOB TARTIBI

2.1. Shartnomaning taxminiy umumiyligi summasi QQS bilan 9000 000 so'mni tashkil qiladi. *Juyg'uz umaru cij u*

2.2. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlari «Yetkazib beruvchi» tomonidan Budget tashkilotla ri, paxta xomashyosi va g'alla ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari va paxtato'qimachilik klasterlari, "O'zbekiston temir yo'llari" AJ, "Toshshaxartransxizmat" AJ, maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish b o'yicha davlat korxonalariga dizel yoqilg'isi (shu jumladan EKO markali dizel yoqilg'isi) o'tgan haftadagi birja savdolari natijalariga ko'ra shakllangan o'rtacha birja narxlariда shakllanadi. Boshqa neft mahsulotlari esa neft baza tomonidan sotib olish va transportirovka xarajatlari hamda neft bazaning ustamasidan shakllangan narxlarda shakllanadi.

2.3. «Etkazib beruvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi olingan zahoti yetkazib berilishi so'rallagan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlariunga ma'lum qiladi. «Iste'molchi» mazkur narxlari asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishlihajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarini 5 kun ichida amalgalashadi. Aks holda «Etkazib beruvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarni qo'llashi mumkin.

2

2.4. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlari uchun to'lovlар «Etkazib beruvchi»ning bankdagi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

### 3. YETKAZIB BERISH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari «Etkazib beruvchi»ning omboridan yoki unga qarashli filiallardan «Iste'molchi»ning buyurtmasi va unda yetkazilishi so'ralgan neft mahsulotlari uchun to'lovlар kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganda yetkazib beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari «Iste'molchi»ga «Etkazib beruvchi»ning maxsus avtotransportida belgilangan tartibda yetkazib beriladi. Neft maxsulotlarini shuningdek «Iste'molchi» tomonidan barcha yongin va texnika xavfsizlik talablariga rioya qilish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda o'ziga tegishli yoki ijaraga olingan maxsus transport vositasida olib ketilishi mumkin va bunday holatda tashish harajatlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

3.3. Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sisternalari 1510-84 Davlat standarti talabiga javob berishi shart. Aks holda avtotransport vositalari ombor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalarining bo'sh ketishi uchun «Etkazib beruvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.4. Neft mahsulotlari qo'yilgan avtotsisternalar («Iste'molchi»ning avtotransportida olib ketish xolatlari bundan mustasno) «Iste'molchi»ning talabiga binoan «Etkazib beruvchi»ning yoki uning bo'linmalari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjalarga (2417-85 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

3.5. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. bandida keltirilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 2 kun ichida yetkazib beriladi. Neftni qayta ishslash zavodlaridan yetkazib berilmasligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi uzilish holatlarida «Etkazib beruvchi» tomonidan «Iste'molchi»ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar yetkazib berishning boshqa muddatini o'zaro kelishib olishlari mumkin.

### 4. NEFT MAHSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft mahsulotlari miqdor buyicha qabul qilish "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini miqdor jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-6-sonli va sifati bo'yicha esa "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini sifat jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-7-sonli yuriqnomalar xamda boshqa me'yoriy xujjalalar talablari asosida amalga oshiriladi.

4.2. «Iste'molchi»ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtida mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini yetkazib bergenlik to'g'risidagi tegishli hujjatlar «Etkazib beruvchi»ning omborida yoki unga qarashli filiallarda, ayrim hollarda «Iste'molchi»ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni «Iste'molchi» tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnoma asosida vakili

imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilib oladi. Egalik xuquqi, tasodifyi nobud bo'lishi, neft maxsulotlariga ziyon yetish xavfi «Etkazib beruvchi»ombori yoki filiali xududidan chiqqan vaqt dan boshlab «Iste'molchi»ga o'tadi.

#### **5. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI**

5.1. «Etkazib beruvchi» «Iste'molchi» ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini yetkazib berishni kafolatlaydi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-son Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan xujjatlarda qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda «Iste'molchi» ularning sifatini, shuningdek sifatini pasportini talab qilish xuquqiga ega.

#### **6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi to'g'risida»gi qonuniga binoan javobgar bo'ladilar.

6.2. «Etkazib beruvchi» neft mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtida yetkazilmagan neft mahsulotlari summasining 0,1 foizi, lekin 10 foizidan ortiq bo'limgan miqdorda penya to'laydi.

6.3. «Yetkazib beruvchi» neft mahsulotlari sifatini o'z hisobidan tiklab berish bilan bir qatorda «Iste'molchi»ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'limgan neft mahsuloti qiymatining 5 foizi miqdorida jarimato'laydi.

6.4. «Iste'molchi» belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan neft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Etkazib beruvchi»ga olinmagan mahsulot umumiyligi qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi olinmagan mahsulot uchun mahsulotning to'lik qiymatini undirish huquqiga ega.

6.5. «Iste'molchi» o'zining hududiga olib keligan neft mahsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik havfsizligi talab va me'yorlari to'liq amal qilinishiga to'liq javobgardir.

6.6. «Iste'molchi» yetkazib berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va havfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

#### **7. FORS-MAJOR HOLATLAR**

7.1. Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar)) sabab bo'lganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

## 8. BOSHQA SHARTLAR

- 8.1. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan har qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'tasida o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda iktisodiy sudlar orqali hal etiladi.
- 8.2. Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'lib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.
- 8.3. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng xukuiy kuchga ega.
- 8.4. Shartnoma tomonlar o'tasida imzolangan va agar «Iste'molchi» byudjet tashkiloti bo'lsa, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xududi g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kiradi va 202~~2~~ yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

## 9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

«TA'MINOTCHI»

«Termiz neft bazasi» M.Ch.J.

Toshkent sh "UZSANOATKURILISHBANK" ATB

**MFO 00432 STIR 200473847**

X/R 22604000400556749701

Direktorij okinibosari:

Bosh xisobchi:


Ichki, soush bo'limi:

Xuquqshunos:

NEFT BAZASI

M.Ch.J.

M. O.



«ISTE'MOLCHI»

Termiz shaxri

S/D VILOYAT BANDLIK BOSHKARMASI

Markaziy bank

Bank H/R 23402000300100001010


Bank MFO:00014 STIR: 200473973

C. Kumaev

Korxona raxbari:  
M. O.

202~~2~~ yil 08 01 dagi

TBT/9 - sonli shartnomaga ilova



## SP YESIFI KASIYA

INCIT mahsulotini ng nomi, mucumi	Dav. STTSh	O'lchov birligi	Narxi	Yillik miqdori	Etkazib berisi summasi	QQS	Summasi
AI-80		tn.					
AI-91		K2	10000 300	9000000	15% 131913	9000 000	
AI-92		tn.					
AI-95	AKSIYAT MASULIYAT	tn.					
DAYO	TERMIN	tn.					
DAYO EKO	TERMIN	tn.					
NEFT BAZASI							

M.Ch.Joh: neft mahsulotlari narxlari birja savdolari natijalariga ko'ra o'zgaradi.

«Etkazib beruvchisi:

M. O.

«Iste'molchi»

M. O.

